

## O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDAGI ASTRONOMIYAGA OID TERMINLARNING FORMAL-STRUKTUR TAVSIFI

*Fotimaxon BAXTIYAROVA,  
Alfraganus University  
nodavlat oliy ta’lim tashkiloti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Izohli lug‘atlarda berilgan astr.terminlari va ularning tuzilishi maxsus tadqiqot sifatida o‘rganildi. Mazkur maqolada izohli lug‘atlarda berilgan astronomiya terminlarining formal-struktur jihatlarini tahlilga tortilgan va joriy lug‘atlardagi astronomiya terminlarining tuzilishiga ko‘ra turlari haqida xulosa shakllantirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *termin, astronomiya, bir uzvli, ikki uzvli, terminologiya, leksikografiya, terminologik birlik, umumxalq leksikasi.*

**Kirish.** Muayyan adabiy tilning so‘z boyligi o‘z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi lingvistikada e’tirof etilgan voqelik hisoblanadi. Milliy tilshunosligimizning terminologik tizimi ham bundan mustasno emas. Zero, umumiste’mol so‘zlardan farqli ravishda maxsus tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilishga yo‘naltirilgan, o‘zbek tilining lug‘at fondida faol qo‘llanib kelayotgan astronomiyaga oid o‘z va o‘zlashgan terminlar ham o‘zbek adabiy tilining shuningdek, o‘zlashma terminlar mansub bo‘lgan tillarning shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari zaminida tarkib topdi va takomillashib bordi. Terminlar takomillashish davrida shakl va tuzilishi jihatidan (hosil bo‘lish va o‘zlashish jarayonida ham) ko‘pgina hodisalarni “boshidan kechiradi”.

Har qanday tilda terminologiyani tuzilishini o‘rganishda, dastlab terminologik birlikni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar soni belgilanadi va ular o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyati hisobga olingan holda so‘z shakllanishining turli usullari aniqlanadi. Shu asosda terminlarning aynan struktur xususiyatidan kelib chiqib, so‘z shaklidagi terminologik birlikning so‘z birikmasi yoki butun boshli gap anglatadigan ma’no-mazmunni o‘zida jamlay olishiga doir ayrim xulosalar shakllantiriladi. Masalan, O‘TILda astronomiyaga oid ayrim yasama terminlarning morfologik shakllari etimologik jihatdan sifat yasovchi, o‘zbek tiliga tarjima qilinganda fe’lning sifat-dosh shaklini hosil qiluvchi qo‘shimchalarga teng kelishi kuzatildi: *sinoptik* – sinoptikaga oid, *galaktik*, *sferik*.

Bunday qo‘shimchalarning astronomiyaga oid predmet nomi, o‘rni va jarayon nomlarini ko‘rsatishi xalq tiliga yaqinligi bilan e’tiborli.

Milliy tilshunosligimizning terminologik tizimi boyishi, to‘ldirilishi va takomillashib borishining bosh manbasi, boshqa tillardan so‘z olinishi bilan bir qatorda o‘zining lug‘at boyligi ekanligi ayni haqiqat. O‘zbek terminologiyasining ichki va tashqi imkoniyatlari hisobiga taraqqiy etishi ikki yo‘l bilan voqelanadi: a) tilda mavjud tayyor so‘zlardan yangi narsa-predmet va tushunchalarni ifodalashda foydalanish; b) o‘zbek adabiy tili so‘z yasash imkoniyatlari ishtirokida yangi



terminlar yaratish<sup>14</sup>. Yangi terminlarni yaratishda soʻz yasashning morfologik, semantik va sintaktik usullaridan unumli foydalaniladi. Shuningdek, terminlar yaratishda kalkalash usulining ham sezilarli oʻrni bor. Terminlar til tizimining boshqa birliklaridan ilmiy xoslanganligi bilan ajralib turadi. Ular tor qatlam uchun birlik, koʻp hollarda birikma va hatto, murakkab shaklda mavjud. Biroq, *Yerning oʻz oʻqi atrofida aylanishi*, *Quyoshning oʻz oʻqi atrofida aylanishi* kabixalq tilida faol qoʻllanadigan terminlar; *Merkuriyning Quyosh atrofidagi harakati jadvali*, *Yerning gazsimon tashqi qobigʻi*, *Qisqa toʻlqinli nurlanishning yutilishi va Yer atmosferasining tarqalishi* kabi ikki uch va toʻrt uzvli turgʻun birikma holda soʻzlarning birikishidan iborat boʻlgan astronomiyaga oid murakkab terminlar, reduplikativ terminlar nima uchundir izohli lugʻat (2 tomli va 5 jildli)larga kiritilmagan. Aslida yuqoridagi kabi murakkab terminlar ogʻzaki uslubda va astronomiyaga oid ilmiy tushunchalarni ifodalashda faol qoʻllanadi. Shu bilan birga bunday sintaktik tuzilishdagi terminlarda maxsuslik, sohaga xoslanganlik xususiyatlari yaqqol koʻrinib turadi. Ularni soddalashtirishga urinish terminning matn mazmunida gʻalizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

OʻTILda mavjud astronomiyaga oid terminlarning tarkibiy tasniflari tilshunoslik va terminologiyada mavjud boʻlgan morfologik va sintaktik prinsiplarga asoslanib, shuningdek, ushbu tadqiqot maqsadlariga muvofiq anʼanaviy metod asosida sodda, qoʻshma, juft (oz miqdorda birikmali, gibrid) guruhlarga ajratilgan holda koʻrildi.

**Xulosa.** OʻTILda astronomiyaga oid terminlar sistemasini oʻzga soha terminlarida kuzatilganidek, turkiy tillardagi mavjud struktur turlar, yaʼni sodda, qoʻshma, juft (faqat bitta), oz miqdorda birikma terminlar va salmoqli qismini gibrid soʻzlar tashkil qiladi. Har ikki lugʻatda ham morfologik jihatdan ot soʻz turkumiga xos leksik birliklar yetakchilik qiladi. Ular astronomiyaga oid terminlarning asosiy qismini tashkil etadi. Shuningdek, son soʻz turkumi ishtirok etgan terminlar, qisman sifat-doshlar mavjud. Biroq sifat, feʼl, ravish, olmosh soʻz turkumlariga mansub astronomiyaga oid terminlar tadqiqotimiz obyektida tahlilga tortilgan birliklar orasida kuzatilmadi.

Oʻzbek tilshunosligida sohaviy terminologiyaning rivojlanishi koʻpgina olimlar qatori R.Doniyorov<sup>15</sup>, H.Dadaboyev<sup>16</sup> kabi olimlarning nomi bilan bogʻliq. Xususan, R.Doniyorov terminlarning shakl va qurilishi jihatidan tavsifini tadqiq etar ekan, terminlarni ikkiga ajratadi: a) birdan ortiq leksik uzvdan tashkil topgan terminlar; b) sintaktik usulda hosil boʻlgan terminlar<sup>17</sup>. Milliy tilshunosligimizda ham qardosh va qardosh boʻlmagan tillardagi kabi mazkur yoʻsinda yasalgan terminlar muhim manba hisoblanadi. Izohli lugʻatga kiritilgan astronomiyaga oid terminlardan farqli ravishda olim tadqiq qilgan oʻzbek tilining texnik terminologiyasida sintaktik usulda hosil qilingan terminlar yakka soʻzli terminlarga qaraganda salmoqli. Bizning tadqiqot obyektimizda aksincha, sintaktik usulda hosil qilingan terminlarga nisbatan yakka soʻzli terminlar miqdori koʻp.

<sup>14</sup>Dadaboyev H.Oʻzbek terminologiyasi. Oʻquvqoʻllanma. — Toshkent, 2019. — 117s.



### Foydallanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dadaboyev H.O‘zbek terminologiyasi. O‘quvqo‘llanma. — Toshkent, 2019. — 117s.
2. Doniyorov R.O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. — Toshkent, 1977. — B. 97.
3. Baxtiyarova F. O‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi astronomiyaga oid terminlarning semantik tuzilishi va ularning xususiyatlari//O‘zbekiston milliy universiteti xabarлари. —Toshkent, 2023, [1/8/1] ISSN 2181-7324. —B.326-328.
4. Baxtiyarova F. Astronomiyaga oid terminlarning semantik maydon munosabati//Til va adabiyot uz. Ilmiy-metodik elektron jurnal. —Toshkent, 2024-yil, 10-son, B.120-121.
5. Baxtiyarova F. Issues in the study of astronomical terms//Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects(ISPADP) Spain. —2022. —P. 274-276.
6. Baxtiyarova F. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan astronomiyaga oid terminlarning leksikografik tadqiqi//Necmettin Erbakan Üniversitesi Yayınları: Necmettin Erbakan University Press: SIRCON 2023. No: 11 Meram / KONYA / TÜRKİYE 0332 221 0 575 - [www.neupress.org](http://www.neupress.org) Sertifika No: 48888.